
Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish yuzasidan davra suhbatini o'tkazildi

Farg'ona shahridagi 12-o'rta ta'lim maktabida jinoatchilik va huquqbuzarlikni oldini olish bo'yicha jinoiy ishlar bo'yicha Farg'ona shahar sudining sud'yasi K.Rahimov va sud'ya yordamchisi A.Erkaboyev ishtirokida 2021 yilda maktab o'quvchilari tomonidan sodir etilgan jinoiyatlar muhokamasi hamda jinoatchilik va huquqbuzarlikni oldini olish bo'yicha davra suhbatini o'tkazildi.

Unda pedagog xodimlar va 8-11-sinf o'quvchilari ishtirok etishdi. Tadbir davomida mutaxassislar tomonidan qonunchiligimizda belgilangan me'yorlar, sodir etilgan jinoiyat bo'yicha javobgarliklar to'g'risida ma'lumotlar berildi. O'quvchilar tomonidan berilgan savollarga mutaxassislar javob berishdi.

Shuningdek, davra suhbatini davomida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ham berildi.

2022-05-24 17:47:35